



## 2020 yilning yanvar - fevral oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### **RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2074,8 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **96,5 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **557,1 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **101,5 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **26,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **35,9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 yilning yanvar - fevral oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2074,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 96,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 94,9 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 102,1 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 82,0 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 52,2 % ni tashkil etdi.

### 2020 yilning yanvar - fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







### **Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020 yilning yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 167,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,1 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmining – 2,5 martani, gaz kondensati – 124,2 % ni, neft qazib olish – 135,5 % ni, qum – 64,4 % ni, shag'al – 49,5 % ni, chaqiq tosh – 107,6 % ni tashkil etdi.

### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
163,1	Tabiiy gaz, mln. kub m. 	414,9	2,5 m. ↑
38,4	Gaz kondensati, ming t. 	47,7	124,2 ↑
3,5	Neft, ming t. 	4,7	135,5 ↑
21,4	Qum, ming t. 	13,8	64,4 ↓

2019 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlab mahsulotlari	2020 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
20,3	<p><b>Shag'al, ming t.</b></p> 	10,0	49,5 ↓
12,2	<p><b>Chaqiq tosh, ming t.</b></p> 	13,1	107,6 ↑


***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2020 yilning yanvar - fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1464,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 70,6 % ni tashkil etdi.

**2020 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %**







O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni, o'rta - yuqori texnologiyali – 32,4 %, o'rta - quyi texnologiyali – 4,9 % va quyi texnologiyali – 62,6 % tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 45,2 % ni, trikotaj polotnolar – 65,2 % ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 95,7 % ni, ip-kalava – 144,5 % ni, plastmassa quvurlar – 90,2 % ni, alkogol ichimliklar – 98,9 % ni, kaliy xlorid – 108,0 % ni va polietilen – 98,1 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2019 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	<b>Paxta tolasi, t.</b>		
23185,0		10470,0	45,2 ↓
	<b>Trikotaj polotnolar, t.</b>		
167,0		108,9	65,2 ↓
	<b>Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.</b>		
24181,0		23151,5	95,7 ↓
	<b>Ip-kalava, t.</b>		
3058,0		4420,0	144,5 ↑
	<b>Plastmass quvurlar, t.</b>		
1009,9		911,0	90,2 ↓
	<b>Alkogol ichimliklar, ming litr</b>		
344,0		340,3	98,9 ↓

2019 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020 yil yanvar - fevral oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
30,0	 <b>Kaliy xlorid, ming t. K2O</b>	32,4	108,0 
23,2	 <b>Polietilen, ming t.</b>	22,8	98,1 



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

2020 yil yanvar - fevral oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 429,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,7 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 39,1 % ga oshganligini, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish va utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 78,5 % ga kamayganligi kuzatildi.



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

2020 yilning yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 557,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,9 % ni tashkil etdi.


### ***2020 yilning yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2020 yil yanvar - fevral oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 61,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 38,5 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 1,7 % tashkil etdi.



**Yanvar - fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**




**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 270,1 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 13,0 % ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarning sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**

**2020 yil yanvar - fevral**




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog` - kon sanoati va ochiq konlarni ishlab korxonalarining ulushi 57,0 %, ishlab chiqarilgan sanoat korxonalari ulushi 43, % ni tashkil etdi.

### ***Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,4 %), G'uzor tumani (20,3 %), Qarshi shahri (18,4 %), Koson (6,1 %), Muborak (6,0 %) va Qarshi (5,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### ***2020 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da***







Shu bilan birga eng kam ulush Kasbi (0,7 %), Mirishkor (1,9 %), Qamashi (2,0 %), Yakkabog' (2,4 %), Shahrisabz (2,5 %) va Kitob (2,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Nishon tumani 443,9 mlrd. so'mni, G'uzor tumani 422,2 mlrd. so'mni, Qarshi shahri 381,5 mlrd. so'mni va Koson tumani 126,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2020 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi**



**2020 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2019 yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, % da**



● 2019 yil yanvar-fevralga nisbatan, % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora - tadbirlar natijasida Chiroqchi tumanida (2019 yil yanvar – fevral oylariga nisbatan 128,8 %), Kitob tumanida (116,2 %), Shahrisabz tumanida (113,1 %), Dehqonobod tumanida (109,3 %), Guzor tumanida (105,9 %) va Nishon tumanida (103,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

### 2020 yil yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlar bo`yicha istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`sish sur`ati



	Mrd. so`m	2019 yil yanvar -fevralga nisbatan o`sish, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>557,1</b>	<b>101,5</b>
Qarshi sh.	180,9	100,8
Shahrisabz sh.	37,1	101,1
tumanlar:		
G'uzor	13,3	101,7
Dehqonobod	8,8	101,1
Qamashi	26,5	101,6
Qarshi	28,9	103,9
Koson	50,0	95,8
Kitob	34,7	103,2
Mirishkor	12,1	101,2
Muborak	12,2	101,7
Nishon	13,1	101,4
Kasbi	15,2	101,5
Chiroqchi	32,3	102,2
Shahrisabz	47,7	102,6
Yakkabog`	44,3	107,4

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng yuqori o`sish sur`ati Yakkabog` tumanida (2019 yil yanvar - fevral oylariga nisbatan 107,4 % ni), Qarshi tumanida (103,9 % ni), Kitob tumanida (103,2 % ni), Shahrisabz tumanida (102,6 % ni), Chiroqchi tumanida (102,2 % ni), Qamashi tumanida (101,3 % ni), Muborak tumanida (101,7 ni) va Kasbi tumanida (101,5 % ni) o`sishi kuzatildi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shaharda (iste`mol tovarlari hajmida 32,5 % ni), Koson tumanida (9,0 % ni), Shahrisabz tumanida (8,6 % ni) va Yakkabog` tumanida (7,9 % ni) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Nishon tumanida (2951,4 ming so'm), G'uzor tumanida (2097,5 ming so'm), Muborak tumanida (1451,4 ming so'm) va Qarshi shahrida (1397,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (viloyat – 639,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2020 yilning yanvar - fevral oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 744,9 mlrd. so`mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,9 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kasbi tumanida (100,0 %), Qamashi (88,8 %), Mirishkor tumanida (88,6 %), Yakkabog` tumanida (83,1 %), Shahrisabz tumanida (73,5 %) va Qarshi shahrida (64,3 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush G`uzor tumanida (3,2 %), Dehqonobod tumanida (10,3 %), Muborak tumanida (12,8 %) va Nishon tumanida (24,1 %) kuzatildi.


### **2020 yilning yanvar - fevral oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3,5 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 698 tasi Qarshi shahrida, 408 tasi Kitob tumanida, 311 tasi Yakkabog` tumanida, 305 tasi Shahrisabz shahrida, 279 tasi Qarshi tumanida, 295 tasi Chiroqchi tumanida, 200 tasi Qamashi tumanida, 182 tasi Shahrisabz tumanida, 194 tasi Koson tumanida, 175 tasi G`uzor tumanida, 125 tasi Nishon tumanida, 128 tasi Kasbi tumanida, 80 tasi Mirishkor tumanida, 70 tasi Dehqonobod tumanida va 72 tasi Muborak tumanida joylashgan.

**2020 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar - fevral oylarida viloyatda 158 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 24 tasi Qarshi shahriga, 11 tasi Yakkabog` tumaniga, 23 tasi Chiroqchi tumaniga, 8 tasi Qarshi tumaniga, 13 tasi Kitob tumaniga, 4 tasi Shahrisabz tumaniga, 4 tasi Nishon tumaniga, 12 tasi Shahrisabz shahriga, 10 tasi Qamashi tumaniga, 10 tasi Kasbi tumaniga, 10 tasi G`uzor tumaniga, 9 tasi Koson tumaniga, 9 tasi Muborak tumaniga, 6 tasi Mirishkor tumaniga va 5 tasi Dehqonobod tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36